

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A. Abduvaliyeva

Markaziy Osiyo o'rta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A. Nishonov	
Farg'ona vodiyisida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A. Aloxunov, B.B. Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A. Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X. Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X. Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V. Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M. Maximov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri	695
A.M. Maximov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK**K.A. Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
--	-----

H.K. Sabirov

Средняя Азия в путевых заметках Ф. С. Ефремова	706
--	-----

A.P. Kosimov

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
--	-----

H.A. Jo'rayev, Y.I. Nishanov

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
--	-----

H.M. Karimova

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
--	-----

Y.I. Nishanov

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
--	-----

I.N. Doronina

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
--	-----

E.F. Gizduulin

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
---	-----

X. Sharifiddinov

Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
--	-----

E.Ibragimova, N. Sharafutdinova

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
---	-----

G.V. Abdullayeva

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
---	-----

S.A. Xodjayev, Ch.I. Turg'unova

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlilik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
--	-----

X.A. Abdulxamidova, D.U. Jamoliddinova

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
---	-----

X.J. Jamolova

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
---	-----

M.M. Xamidov

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
---	-----

R.M. Umurzakov

Bola obrazining nazariy muammolari	761
--	-----

J.B. Sayidolimov

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765
--	-----



УО'К: 39:796.4:930.85

XALQ O'YINLARINING TARIXIY ILDIZLARI VA LOKAL XUSUSIYATLARI
ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ И ЛОКАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАРОДНЫХ ИГР
HISTORICAL ROOTS AND LOCAL CHARACTERISTICS OF FOLK GAMES

Salimjon Valievich Yo'ldoshev 

Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasи dotsenti

Annotatsiya

Maqolada xalq o'yinlarining kelib chiqish tarixi xo'jalik an'analarini bilan bog'liq holda shakllanganligi manbalar asosida ochib berilgan. Manbalar tahlili ma'lumotlarida xalq o'yinlarining yuzaga kelish tarixi hamda evolyusiyasini o'rganish haqida so'z yuritiladi. Asrlar davomida tabliy shart-sharoit va xo'jalik an'analaridan kelib chiqqan, ijtimoly-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarida sayqallanib borgan xalq o'yinlari haqida mushohada yuritilishi milliy ozlikni angash hamda ma'nnaviy, jismoniy barkamollikni ta'minlashdagi shamiyatini chuqurroq idrok etishga imkon beradi. O'yinlarning umumiy va lokal xususiyatlari ularning nomlanishi, qoidalari, borish jarayonlarining qiyosly tahlili bayon qilingan.

Аннотация

В статье раскрывается, что история возникновения народных игр формировалась в связи с хозяйственными традициями, опираясь на источники. При анализе источников говорится об изучении истории и развития народных игр. Наблюдение за народными играми, формировавшимися на протяжении веков на основе природных условий и хозяйственных традиций на этапах социально-экономического развития, позволяет понять их национальную самобытность и значение в духовном развитии. Описаны общие и локальные особенности игр, их названия, правила, проведен сравнительный анализ процессов.

Abstract

The article reveals that the history of the emergence of folk games was formed in connection with economic traditions, relying on sources. In the analysis of the sources, it is said to study the history and development of folk games. Observing the folk games formed over the centuries based on natural conditions and economic traditions during the stages of socio-economic development allows to understand their national identity and their importance in spiritual development. The general and local features of the games, their names, rules are described, a comparative analysis of the processes is carried out.

Kalit so'zlar: ov o'yinlari, qo'shiq, viktorina, ko'rlik tanlov, sport musobaqalari, urf-odat, an'ana-udum, xalq o'yinlari, ma'nnaviy meros.

Ключевые слова: охотничьи игры, песня, викторина, театрализованное представление, спортивные состязания, обычай, традиции, народные игры, духовное наследие.

Key words: hunting games, song, quiz, pageant, sports competitions, customs, traditions, folk games, spiritual heritage.

KIRISH

Xalq o'yinlarning tarixiy ildizlari ibridoib odamlar turmush tarziga va hayotiga borib taqaladi. Bunday o'yinlar ov oldi mashqi vazifasini o'tab, o'sha davrga xos kichik jiddiy tadbir shaklida uyushtirilgan [1. 24-25]. Ovchilik asosida chorvachilik shakllangan, keyinchalik bu o'yinlar chorvador qabilalar orasida an'anaga aylanib qolgan. Ov o'yinlarini ruhiy va jismoniy shaylanish maqsadida bayram marosimlarida ko'tarinki kayfiyatni vujudga keltirish uchun muntazam an'anaga aylanib borganligi ilk madaniyat va san'atning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratgan.

Markaziy Osiyo mintaqasi eng qadimgi tarixiy-etnografik va muhim ijtimoiy-iqtisodiy hududlardan hisoblanadi. Ham o'troq, ham ko'chmanchi sivilizatsiyaning eng ilg'or tajribalarini o'ziga singdirib va sintezlab olgan Markaziy Osiyo aholisi o'ziga xos original madaniyatga asos solgan. Mintaqada o'zbek, tojik, qirg'iz millati vakillari yonma-yon yashaganligi, bir-biriga yaqin xo'jalik turlari bilan shug'ullanganliklari tufayli uzoq asrlar davomida etnomadaniy jarayonlarda uyg'unlik shakllanib kelgan.

Mazkur maqolada asrlar davomida tabiiy shart-sharoit va xo'jalik an'analaridan kelib chiqqan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarida sayqallanib borgan xalq o'yinlari haqida mushohada yuritilishi milliy o'zlikni anglash hamda ma'naviy, jismoniy barkamollikni ta'minlashdagi ahamiyatini chuqurroq idrok etishga imkon beradi.

Xalq o'yinlari o'z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakat, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallar, namunalar, tomoshaviylik elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Xalq o'yinlari juda qadimiy va boy tarixga egadir. Ularning ildizlari insoniyat paydo bo'la boshlagan ibtidoiy davrlarga borib taqaladi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Taniqli olim U. Qoraboev o'yin qadim zamonlardanoq insoniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'r'in eallab kelganligini ijtimoiy turmush tarzi bilan bog'lab, mehnat tarjibalari bilan birga o'yin-musobaqalarga ehtiyojni keltirib chiqqanligini izohlaydi.

Inson tili rivojlanmagan bu davrda mehmon va mezmonlar o'z fkrlarini, pantomim o'yin-raqs shaklida ifodalashgan degan fikrlarni ilgari suradi[2.6-7].

O'rta Osiyoning qadimgi "samoviy otlari", o'yinlari, dostonlar, afsonalar, ertaklar va tasviriy san'at asarlari, qoyatosh suratlari mavjud va bular to'g'risida ko'plab ilmiy asarlar, ularning sharhlari yozilgan[3.4.5.6.].

E.A. Arkinning fikricha, ular «azaliy o'yinchoqlar» bo'lib, tarixiy taraqqiyotning mahsuli, shuningdek, inson mehnatining qurollari va sig'inaladigan narsalar tarixining ifodasıdir [7.11.].

Xalq o'yinlari haqidagi yozma ma'lumotlarni XI asrda yashagan taniqli turkiyshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan ham olish mumkin. Mazkur asarda keltirilgan ma'lumotlar xalq o'yinlarining yuzaga kelish tarixi va evolyusiyasini o'rganish imkonini beradi.

Jumladan, turkiy qavmlar orasida to'p bilan o'ynaladigan qadimiy o'yinlardan biri – "chavgon" keng rasm bo'lgan edi. "Devonu lug'otit turk" da bu o'yinga taalluqli bo'lgan quyidagi atamalar keltiriladi:

"Tanguq"-chavgon o'yinida koptokni tortilgan o'tovdan o'tkazganga beriladigan ipak kiyimlik, "tasal" - chavgon o'yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq, "tobiq" - chavgon bilan uriladigan koptok, to'p [8. 360-445].

Ma'lumotlarga qaraganda, bizning qadimiy ajdodlarimiz o'zlarining turmush tarzlaridan, xo'jalik hayotidan kelib chiqqan holda yilqichilikka va u bilan bog'liq urf-odatlarga asos solib, rivojlantirib borganlar. Hatto S.Firsovning ma'lumotlariga ko'ra, "... turkiy xalqlar islam diniga qadar otlarni ham muqaddas sanab, o'z uylari va o'tovlarining eshigi ustiga otning bosh suyaklarini ilib qo'yan. Bu suyak oilani barcha yomon illatlardan, yovuzliklardan saqlab turgan va shu bosh suyak oldida qasamyod qilganlar. SHu o'rinda aytish joizki, xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, ertaklarda otlar qahramonning yordamchisi sifatida talqin etiladi"[9. 110.].

1988 yil Istambulda chop etilgan professor, doktor Bahaeedin O'gul asaridagi "Dostonlarda ot musobaqasi" bo'limida musobaqa bir jang sahnasi kabi tushuntiriladi. "Bir turk mifologiyasida Manasni mashhur qilgan narsa ot ustida kurash bo'lgan, chunki dushmanqa qarshi har bir kurash jang kabi shiddatli kechgan"[10.], deb ta'kidlaydi.

Qolaversa, yozma manbalarda Markaziy Osiyo xalqlari orasida farzandlarini uch yoshidan ot minishga o'rgatishlarining o'zi bu erda chavandozlik qay darajaga ko'tarilganligini ko'rsatadi. Shuni aytish kerakki, turkiy xalqlar urf-odatlarini tadqiq etgan A.A. Divaevning qirg'izlarning aza marosimlari to'g'risidagi ma'lumotlarida ham ot bilan bog'liq urf-odatlar ko'rsatilgan [11.176.].

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'rta Osiyo xalqlarida ot bilan bog'liq bunday marosimlar to'g'risida tarixiy va badiiy asarlarda ham ko'p marotaba tilga olingan. Jumladan ming yillik tarixga ega Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub «SHohnoma» dostonida ham mazkur odat to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [12.33,34]. Tadqiqotlar davomida tarixiylik, qiyosiy tahil, tizimlashtirish, tarixiy-retrospektiv, dala tadqiqotlari (suhbat, intervju, kuzatuv), etnosotsiologik usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

XI asrda yashagan turkiy qavmlar orasida yong'oq bilan o'ynaladigan o'yin ham bo'lgan. Bu o'yin "Ko'chirma o'yin" deb ataladi. Mahmud Koshg'ariy ayrim qabilalar tilida bu o'yin "O'n to'rt" deb ham atalishini qayd qiladi. Olimning yozishicha, bolalar erga qo'rg'onchaga o'xshatib to'rt chiziq

TARIX

tortib, unga o'nta eshik qilishgan. Ana shu shaklga tosh yoki yong'oq tashlab o'ynaganlar. To'rt chiziq va o'nta eshik chizilganligiga ko'ra o'yin nomi "O'n to'rt" deb atalgan bo'lsa kerak.

Yong'oq o'yini hozirgi kunda ham o'zbek bolalarining kuz-qish fasllarida o'ynaydigan mavsumiy o'yinlaridan biri hisoblanadi. Nazarimizda, "Ko'chirma o'yin" aslida yumaloq tosh vositasida o'ynalgan. Keyinchalik bu predmetli o'yinda tosh o'miga yong'oqdan foydalanish an'anasi yuzaga kelgan.

Farg'ona vodiysining Andijon viloyati Izboskan va Marhamat tumanlarida yashovchi aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik, bog'dorchilik bo'lganligi tufayli, "oq sholi – ko'k sholi", "bo'jama bola", "Ahmad-Ahmad", "kamon o'yini", "uloq va oshiq o'yinlari", "qulqoq cho'zma", "tortishmachoq", "tandir pish"(Izboskan tumani), "to'p-tosh", "oq terami-ko'k terak", "xola-xola", "dasta o'yini", "par tepish" (Marhamat tumani) kabilalar keng tarqalgan bo'lib, "uloq", "qulqoq cho'zma" o'yinlari ikki tuman orasida birdek tarqalganligi aniqlandi.

Vodiyning Qirg'iston Respublikasiga tegishli bo'lgan chegaradosh Sayriqum, Nushqon, Burgandi kabi qishloqlarida o'n etti xil mashq orqali bajariladigan "pichoq o'yini", loy bilan o'ynaladigan "porsin-pars", "yong'oq", "xurmacha bog", "par tepish" kabi o'yinlar keng tarqalgan.

Farg'ona viloyati Oltiariq tumanining tojik millatiga mansub aholi yashaydigan Bo'rqliq qishlog'ida kattalar va bolalar orasida o'ynaladigan o'ttiz besh tur o'yinlar aniqlandi. Bunday o'yinlar faqat tojik millatiga mansub aholi orasida o'ynaladigan, tojikcha iboralar bilan nomlanadigan "parbozi" (par o'yini), "qushakbozi" (qum o'yini), "chimpo'shak" (chim kiydi), "qumkafanak" (qumda sudralish musoabaqasi), "dandon ba qoshiq" (tishda qoshiq ushlab turish) kabi o'yinlar ajralib turadi. Bunday o'yinlarning turlari Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida, Bag'dod, Rishton, Quva, Besharik tumanlari, Namangan viloyatining To'raqo'rg'on, Uychi, Koson, Chust tumanlari, Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyati Yangi Novqat, Eski Novqat, Uchqo'rg'on aholi shaharchasi, Batkent viloyati Qadamjoy, Haydarkon aholi punkti kabilarda istiqomat qiluvchi o'zbek, tojik, qirg'iz aholisi o'rtasida keng tarqalgan[13]. Dala etnografik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur hududlar aholisi orasida o'ynaladigan o'yinlarning 80 foizi birdek tarqalgan. Xalq o'yinlarning tarixan tarkib topishi va o'ziga xos (lokal) jihatlarining namoyon bo'lishi uzoq tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Xalq o'yinlari va ularning turlari haqida fikr yuritilar ekan, ko'p ming yillik tarix davomida moddiy va ma'naviy yodgorliklarning ma'lumotiga ko'ra, ular biror mifologik qarash va tasavvurlar bilan bog'liqligi ayon bo'ladi. Ayniqsa, ot hayvoni ishtirokida uyushtiriladigan o'yinlar insoniyatning ilk diniy e'tiqodlari totemizm, animizm, fetishizm tasavvurlariga borib taqalashi bilan xarakterlanadi.

XULOSA

Xalq o'yinlari ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo'lgan ibtidoi rituallar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi o'yinlar o'zining rituallik xususiyatini yo'qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko'ngil ochar vositaga aylangan. Shu tufayli bolalar o'ninchog'iga o'xshagan mehnat qurollari yasala boshlagan. Bolalar o'yinining vositasi - o'yinchoqlar ana shu tariqa vujudga kelgan bo'lishi mumkin. Xalq o'yinlarining muayyan bir qismi bevosita qadimgi odamning o'z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, qadimgi hunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi xalq o'yinlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi.

Ta'kidlash joizki, xalq o'yinlari o'z-o'zidan emas, balki ehtiyoj asosida vujudga kelgan. Ularning paydo bo'lishi va shakllanish davri turli bosqichlarda kechganligi tufayli mifologik qarashlar zamirida asoslashga urinish sezildi. Masalaning yana bir jihat shundaki, davr o'tishi bilan xalq o'yinlari kishilar hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ajdoddan avlodga meros bo'lib o'tishi hamda zamonga moslashib, kamol topish jarayonlari yuz bergan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Корабоев У.Ўзбек халқи байрамлари. – Т.: Шарқ, 2002.-Б.24-25.
2. Корабоев У.Ўзбек халқ үйинлари. – Т.: Санъат.2001.-Б.6-7.
3. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши/- СЭ.1948, -№4.

4. Беленогов М.И. Ахалтекинская порода лошадей, её морфологические особенности, Автореф. докт.дисс. – М:1957.-С.56.
5. Вяткин К.В. Культ коня у монгольских народов//СЭ.1968.-№6.
6. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар: Қадимий ва илк ўрта аср Хитой мабаларидан таржималар ва уларга шарҳлар. "Фарғона" нашриёти, 2013.-288 б.
7. Фозиев Э.Ғ., Анарметова Ш. Ўйин назарияси.-Т.: 1995.-Б.11.
8. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк.Т.1. – Т.: 1963.-Б.360-445.
- 9.Фирсов С. Туркестан и Туркестанские породы лошадей..Т. 478.-С.110
10. Bahaeeddin Ögel (prof. Dr) Dünden bu'güne. Türk Kültürü'nün Gelişme Çağları нашри Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı. İstanbul. 1998. -786 b.
11. Диваев А.А. Известия общество. Туркестанский сборник 1897.Т.478.-С.176.
12. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Т.: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.,1984. –Б.33, 34, 390-395, 504, 505.
13. Дала ёзувлари.2005 йил. Андижон вилояти. Избосган, Марҳамат тумани. Пойтуғ, Қўқон, Луғумбек, Пахтакор, Қорабоғиш, Марҳамат қишлоқлари.